O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI BO‘STONLIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 24 - noyabr 282-10-136-Q/23 Bo‘stonliq tuman hokimligi

Bo‘stonliq tumani hokimining 2023-yil 4-oktabrdagi 222-10-136-Q/23-sonli qarorni bekor qilish to‘g‘risida

2023-yil 4-oktabrda "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida"gi 222-10-136-Q/23-son qaror qabul qilingan. Mazkur qaror yuzasidan tuman adliya bo‘limi tomonidan "E-qaror" elektron tizimi orqali qabul qilingan qarorlar va farmoyishlar monitoringi natijasida 2023-yil 1-noyabrda 33-sonli taqdimnoma kiritilib, tuman hokimining 2023-yil 4-oktabrdagi "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida"gi 222-10-136-Q/23-son normativ harakterdagi qarorini bekor qilish ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O‘zbekiston Respubikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi RQ-3666-son qarorining 4-bandi, "Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida"gi Qonunning 26-moddasi 2-qismi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Bo‘stonliq tuman adliya bo‘limining 2023-yil 1-noyabrdagi 33-sonli taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bo‘stonliq tuman hokimining 2023-yil 4-oktabrdagi "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida"gi 222-10-136-Q/23-sonli qaror bekor qilinsin.

3. Bo‘stonliq tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish

bo‘limi (A.Kanakov) "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida"gi normativ harakterdagi qaror loyihasini “E-qaror” elektron tizimiga kiritilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Abduvoxidov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Axmedov**